

Ingliz Va O'zbek Tillarida Fe'llarning Aspektuallik Nazariyasi, Harakat Tarzi Kategoriyalari

*Munisa Karimova*¹, *Abduxakimov Shermuhammad*²

Annotatsiya: Mazkur maqola ingliz tilida aspektuallik kategoriyasini belgilash va uning strukturasi muammosini ko'rib chiqadi. Ingliz tilida fe'l tusining morfologik kategoriyasi mavjudligi masalasi tahlil qilinib, bu boradagi turli yondashuvlar keltirilgan. Ba'zi tilshunoslar ingliz tilida tus mavjudligini inkor etib, uni o'zbek tilidagi tushunchalari bilan qiyoslaydilar. Biroq boshqa tadqiqotchilar progressiv shakllarning aspektuallikni ifodalashdagi roliga e'tibor qaratadilar.

Kalit so'zlar: Aspektuallik, fe'l tusi, morfologik kategoriya, progressiv shakl, chegaralangan va chegaralanmagan, davomiylik, aspektual ma'no, grammatik o'ziga xoslik.

Til hodisalariga funksional-semantik yondashuv, leksik va morfologik qatlamlar o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Shuning uchun, har qanday tilda fe'lning leksik ma'nosi, uning chegaralangan yoki chegaralanmagan xususiyatlari, hamda ma'lum leksik-semantik guruhga tegishlilik bilan shakllangan grammatik konstruksiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash muhimdir. Tilning grammatik kategoriyalaridagi imkoniyatlar, leksik semantikaning denotativ ma'nolari bilan kategorial-grammatik ma'nolarni birlashtirgan holda shakllanadi. Ontologik jihatdan keng va asosli nazariy taklif A.V. Bondarkoning funksional-semantik maydon (FSM) nazariyasi sanaladi. FSMning tahlil metodi quyidagilarga asoslanadi: 1) aspektuallik, zamonning moslashuvi, taksis; 2) temporallik, modallik; 3) personallik, nisbat; 4) subyektivlik, obyektivlik, nutqning kommunikativ tarkibi; 5) sifatli xususiyatlar, miqdor, komparativlik, posesivlik; 6) lokativlik, shartlilik maydoni majmui (Bondarko A.V. va boshqalar, 1987; 48–79).

Chegaralanmagan fe'llarda esa harakatning ma'lum bir chegaraga yetishi kuzatilmaydi. Masalaning murakkabligi shundaki, ingliz tilida bir paytning o'zida ham chegaralangan, ham chegaralanmagan mazmundagi fe'llar, ya'ni bir vaqtning o'zida ikki turga mansub fe'llar mavjud [5, 39]. Aynan shuning uchun ham fe'lning tus xarakteriga tobe grammatik mazmun sifatida qaraladi. Ya'ni bunda tus fe'lning leksik mazmuni bilan mos kelishi shart emas. Ingliz tilida fe'lning tus xarakteriga kontekst omillari kuchli ta'sir qiladi. Ularning asosiylari quyidagilar: birlikdagi ot orqali ifodalanayotgan to'ldiruvchi, yo'nalish, ravish yoki chegaralangan fe'l bilan ifodalanayotgan bir jisimli kesim. Masalan: **to sit-to sit down**: *She drank her coffee, put down her cup, and looked at me* (Francis).

Til hodisalariga nisbatan funksional-semantik yondashuv leksik va morfologik yaruslarning munosabatini o'zaro bog'liq holda olib borishga qaratiladi. Aspektologik tadqiqotning funksional-semantik maydonda tahlil etilishida predikat vazifasidagi fe'lning aksional (chegaralanganlik/chegaralanmaganlik) semantikasiga asoslanilishi barobarida kontekstdagi boshqa til birliklarining predikatga ta'siri ham e'tiborga olinadi. Aspektuallikning funksional-semantik maydonda aniqlanishida fe'lning aksional xususiyatlari ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Bu borada B.H. Rizayev (1999) nemis tili aspektual tizimini o'rganar ekan, aspektologik fe'l leksemalari aksional tasnifini uch guruhga ajratishni taklif qiladi. Bunda fe'l leksemalarining chegaralanganlik/chegaralanmaganlik xususiyatlaridan tashqari limitativ neytral fe'llar guruhi ham ajratiladi.

¹ Samarqand davlat chet tillar instituti Ingliz filologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi

² SamISI talabasi



Aspektologiya rivojlanishida muhim etap bu tusni va harakat qobiliyatini farqlash bilan bog'lik, bu esa Potebnya tomonidan ancha ilgari aniqlangan va polyak tilida S. Agrell (1908) tomonidan shakllantirilgan. U tusni grammatik kategoriya sifatida yanada aniqroq ajratib olishga yordam berdi, umumiy aspektologiya buyicha ishlar uchun va slovyan tusi kelib chiqishi masalalarini yo'lga qo'yish uchun asoslar yaratdi (N. Van Veyk va boshkalar) 30-yillarda R. O. Yakobson, Fortunatov, Shaxmatov va Peshkovskiy fikrlariga tayangan holda slovyan tillaridagi tus oppozitsiyasi va fe'ning tugallanmagan tusi belgilanganligi (markirlanganligi) xususiy xarakterlari holatini oldinga suradi.

Umumiy aspektologiyadagi muhim ishlar fransuz tilida 20 asrning oxiriga kelib va keyingi yilliklarda rus va slovyan tillari aspektologiyasida fe'l leksikasini kichik va asosiy aspektli guruhlariga ajratish va ularni o'zaro munosabatda bo'lishi va o'zaro bog'liq bo'lmasligi kontekstda va alohida tus ma'nolarida holat shartlarini yuzaga chiqishda ajratishlar sodir bo'ldi.

Umumiy va qiyosiy aspektologiya uchun funksional-semantik aspekt maydoni [2, 46-63] muxim tushunchasi oldinga suriladi, tus belgilari semantik iyerarxiyasi masalalari muhokama qilinadi, ot guruhlarida aniqlik va mavhumlik ma'nolari tuslar o'rtasidagi munosabatda va matn tashkil topishida tusni karama-karshiligi roli aniqlanadi.

Tur toifalari, cheklangan/cheklanmaganlik kategoriyalari va harakat usullari cheklangan/cheklanmagan harakatning umumiy elementlarini aks ettiradi. Tur kategoriyasi harakatning vaqt bo'yicha taqsimotda namoyon bo'lishining yaxlit yoki yaxlit emasligini aniqlash uchun ishlatiladi. Cheklanganlik yoki cheklanmaganlik esa miqdoriy cheklash yoki ichki chegaraga erishish uchun harakatning yo'nalishi yoki yo'naltirilmashligi ma'nosini anglatadi. Fe'ning turli harakat ma'nolarida "harakat usullari" harakatni amalga oshirish chegarasiga nisbatan rivojlanish usullarini ko'rsatadi. Nutqda va kontekstda harakat mohiyatini ifodalashning turli usullari birlashadi. Aynan shu yerda ularni to'liq amalga oshirish mumkin va bunda toifa aspektuallik ochiladi [Bondarko, Bulanin, 1967: 51].

Bir nechta chet ellik olimlar tusni universal psixologik tushuncha, stilistik kategoriya yoki zamonaviy aspektologlar tomonidan funksional-semantik aspektologik maydonda grammatik bo'lmagan element sifatida qaraydilar. Yoki fe'ning chegaralangan va chegaralanmaganligini qarama-qarshi qo'yish orqali tus kategoriyasiga izoh beradilar. Bu, o'z navbatida, aspektologiyaning keng qamrovli ekanligidan dalolat beradi va ma'lum grammatik shaklga tayanib ish ko'rish mumkin emasligini, uni universal til hodisasi deb baholashni ilgari suradi.

Aspektuallik nazariyasi keyingi yillarda jahon tillarida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Aspektuallikning mohiyati shundaki, u tilga xos universal tamoyildir. Har bir tilda harakatning zamonda rivojlanish va taqsimlanish xarakterini ifodalovchi vositalar mavjud [2, 76]. Aspektuallik maydoni «o'zaro aloqaga kirishuvchi til vositalari (morfologik, sintaktik, so'z yasovchi, leksik, grammatik va hokazolar) orqali shakllanadi. Bu vositalar semantik funksiyalarning umumiyliigi bilan birlashtiriladi. Mazkur funksiyalar aspektuallik sohasiga tegishlidir.

Aspektuallik maydonining asosiy komponentlari orasida eng avvalo fe'l tusining grammatik kategoriyasi ko'rsatiladi. Mazkur tus bir xil mazmunga ega bo'lgan morfologik shakllar qatorini birlashtiruvchi sistema sifatida tushuniladi. Keyin ushbu komponentlarda quyidagilar ajratiladi:

- chala grammatikalashgan turlar;
- harakatning boshlanishini anglatuvchi fe'lli birikmalar;
- qo'shimcha aspektuallik funksiyasiga ega sintaktik vositalar;
- holga taalluqli leksik belgilar, masalan: *uzoq, darhol, doimo, sekin, birdaniga, tez-tez* va boshqalar.

Ayni paytda aspektuallik maydonining struktura jihatlari har bir konkret tilda quyidagi omillarga bog'liq:

1. Aspektual komponentlarning qaysilari hal qiluvchi rol o'ynashi;
2. Mazkur tilda aspektual vositalarni birlashtiruvchi tus (vid) kategoriyasining mavjudligi yoki yo'qligi;



3. Umuman, aspektuallik maydonida aspektual ma'nolarni anglatuvchi vositalarning mavjudligi va ularning ahamiyati.

Ingliz tilida aspektuallik kategoriyasini belgilash va uning strukturasi aniqlash muammosi, eng avvalo, mazkur tilda fe'l turining morfologik kategoriyasining mavjudligi masalasini hal etish bilan bog'liq. Bu masalaga turlicha yondashuvlar mavjud.

Ingliz tilida fe'l tusi kategoriyasi mavjudligini inkor etish ayrim grammatiklar ishlarida uchraydi. Ular bu kategoriyani belgilashda tus shakllari qarama-qarshiligiga asoslanadilar. Bu morfologik jihatdan slavyan tillarida *sovershenniy* va *nesovershenniy* tuslarning qarama-qarshi qo'yilishiga o'xshash ko'rinadi. Bunga misol tariqasida R. Zandvortning ishlari keltiriladi. Masalan, uning bir risolasi hattoki shunday nomlanadi: *Tus ingliz tilida grammatik kategoriya bo'la oladimi?* Mazkur savolga Zandvort inkor javobini beradi. Uning fikricha, ingliz tilidagi tus va zamon shakllari rus tilidagi tuslar qarama-qarshiligiga o'xshamaydi. Ingliz tilidagi fe'llarda tus kategoriyasining yo'qligi haqidagi fikrni ayrim rus tilshunoslari ham ilgari surishgan [3].

Biroq tus kategoriyasini ingliz tilida inkor etgan tadqiqotchilar ham fe'l shakllaridagi davomiylikning o'ziga xosligiga alohida e'tibor qaratadilar va ingliz tilidagi fe'l shakllarida harakat davomiy jarayon sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlashadi. Shu tariqa, mazkur shakllarni ingliz tilida yagona tus sifatida, davomiylikni esa ularning asosiy mazmuni sifatida talqin qilish an'anasi vujudga keldi. A. Ota shunday deb yozgan edi: *Tus u yoki bu grammatik vosita yordamida harakatning xarakteri haqida ma'lumotni anglatadi. Ingliz tilida progressiv shakl harakat jarayonini ifodalaydi, demak, bu shakl bizning tilimizdagi tus shakllari bilan bir xil* [3, 135].

Struktur va generativ grammatika vakillari esa ingliz tilida tus shakllari mavjud deb hisoblashadi va bunda progressiv va perfekt hamda ikki zamon guruhini (hozirgi va o'tgan) ko'rsatishadi. Ayni paytda, fe'l shakllarining zamon mazmunini aniq anglatish uchun 75% hollarda maxsus zamon aniqlovchilar kerakligini ta'kidlashadi. So'nggi yillarda chop etilgan ishlarda hozirgi va o'tgan zamon shakllari (*Present*, *Past*) zamon-progressiv-perfekt aspektual shakllarini qarama-qarshi qo'yish hollarini uchratish mumkin. Bundan tashqari, tadqiqotlarda fe'l predikatlari va turli fe'lli iboralarga alohida e'tibor qaratilmoqda [3].

Rus tilshunosligida aksariyat tadqiqotchilar ingliz tilidagi davomiy shakllarni tusga xos deb hisoblashadi, biroq boshqa shakllar (noaniq va perfektga xos) to'g'risida bir to'xtamga kelingani yo'q. Masalan, B.A. Ilish va A.M. Smirnitkiy *Continuous* va *Indefinite* shakllari o'rtasidagi qarama-qarshilikni davomiy va umumiy tus shakllari qarama-qarshiligi sifatida baholashadi. Biroq ular umumiy tusning mazmuni haqida aniq fikr bildirishmaydi. G.N. Voronsova [5] esa shaklning o'zgacha konsepsiyasini taklif etadi: u *perfekt* va *noprefekt* tus qarama-qarshiligini ajratib ko'rsatadi, qolgan shakllarni esa to'liq zamon kategoriyasiga xos deb hisoblaydi.

Ingliz tilidagi zamon shakllari zamon hamda tus kategoriyalari mazmunini birlashtiruvchi shakllar sifatida talqin etilishi mumkin. Mazkur shakllarning aspektual ma'nolarini tahlil qilish I.P. Ivanova nuqtayi nazaridan asoslanadi. Unga ko'ra, bu shakllar tus-zamon mazmunlarini mujassamlashtirgan. Asos sifatida *Indefinite Tense* qabul qilinadi va uning atrofida qolgan uchta zamon shakli (*Continuous*, *Perfect* va *Perfect-Continuous*) guruhlanadi. Asosiy *Indefinite* guruhiga nisbatan bular harakatni aniqlashtiruvchi vosita hisoblanadi. Fe'lning tus xarakteriga qarab, mazkur tus-zamon guruhlarida gohida zamon, gohida tus belgilari namoyon bo'ladi [4, 53]. "Ingliz tili nazariy grammatikasi" mualliflarining fikricha, tus kategoriyasi odatda formal kategoriya sifatida ta'riflanadi, u harakatning zamonda sodir bo'lish xarakterini ifoda etadi. Ingliz tilidagi tus shakllarining o'ziga xosligi shundaki, tus mazmuni harakat sodir bo'layotgan vaqt birligini ko'rsatish bilan bog'liq va demak, zamon doirasida ifoda etiladi. Shunday qilib, ingliz tilidagi tus grammatik kategoriyasining o'ziga xosligi shundaki, u fe'lning ma'nosini qo'llab-quvvatlaydi yoki unga qarama-qarshi chiqadi. Fe'lning tus xarakteri uning chegaralanganligi yoki chegaralanmaganligida namoyon bo'ladi va ayni paytda u formal ko'rsatkichlarga ega bo'lmaydi. U tobe grammatik mazmunni ifoda etadi (Ivanova ta'rifi bo'yicha), chunki fe'lning grammatik xarakteristikalariga ta'sir ko'rsatadi. Fe'lning



chegaralanganligi esa uning yuqori cho‘qqisiga yetgan harakatni boshqa davom ettirib bo‘lmasligini anglatadi.

Adabiyotlar

1. Бондарко А.В. Теория значения в системе функциональной грамматики: На материале русского языка / Рос. академия наук. Ин-т лингвистических исследований/ А.В. Бондарко. – М.: Языки славянской культуры, 2002. – 48-796
2. Бондарко А. В. Теоретические проблемы русской грамматики. СПб.: Изд-во СПбГУ, 2004. – 208 с.
3. Ota A. Tense and aspect of present-day American English. Tokyo. 1963. VIII+135p.
4. Иванова И. П. Вид и время в современном английском языке. Л., 1961. 200с.
5. Ризаев Б.Х. Проблема аспектной семантики временных форм немецкого глагола. Аспектная семантика претрита. “Фан”. -Ташкент, 1999. -121 с.
6. Mirsanov G'.Q. Ingliz va o‘zbek tillarida yurish-harakat fe’llarining aksional va aspektual xususiyatlari. Filol.fan.n.diss. avtoref. –T.: 2009. -21 б.

